

Ayollarning Meros Olish Tartibi: Tarix Va Bugungi Holat

Axmedova Shaxnoz Ganidjanovna,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik
akademiyasi magistri

Annotatsiya: Meros instituti insoniyat tarixida ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy munosabatlarning markaziy bo'g'ini sifatida shakllanib, mulkning avloddan-avlodga o'tishini tartibga solgan. Unda ayollarning mulkiy subyekt sifatida tan olinishi va ularga ajratiladigan ulush jamiyatning diniy, huquqiy va axloqiy qadriyatlariga bevosita bog'liq bo'lgan.

Qadimgi jamiyatlarda meros asosan erkak avlod ustuvorligi asosida taqsimlangan. Bunday tartibda mulk ko'proq o'g'illarga berilib, ayollar ikkinchi darajali huquqiy maqomga ega bo'lgan yoki ayrim hollarda butunlay merosdan chetlashtirilgan. Bu holat jamiyatdagi gender tengsizligi va patriarxal tuzumning asosiy belgilaridan biri edi.

Samoviy dinlarning paydo bo'lishi bilan meros masalalari aniq normativ-huquqiy me'yorlar orqali tartibga solina boshladi. Yahudiylilikda erkak avlodning ustuvorligi saqlangan bo'lsa, nasroniylilikda meros ko'proq Rim huquqi va mahalliy odatlarning sintezi sifatida shakllandi. Islom huquqida esa Qur'oni karim asosida ayollarning meros huquqi qat'iy belgilandi va ular mustaqil mulkdor sifatida tan olindi.


Mazkur maqolada ayollarning meros huquqi tarixiy-comparativ yondashuv asosida tahlil qilinib, qadimgi huquqiy tizimlar va uch dinning merosga oid qoidalari qiyosiy ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bu me'yorlarning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlarini baholanib, ularning zamonaviy huquqiy diskurs, jumladan CEDAW kabi xalqaro normalar bilan bog'liqligi yoritiladi.

Kalit So'Zlar: ayollarning meros huquqi, qadimgi huquqiy tizimlar, yahudiy huquqi, nasroniylilik an'analari, islom huquqi, Qur'oni karim, mulkiy tenglik, gender adolati, ijtimoiy oqibatlar, qiyosiy-huquqiy tahlil.

KIRISH: Meros tizimi samoviy dinlar va qadimgi xalqlar tajribasida o'lpon, soliq, oilaviy majburiyatlar va "uy xo'jaligi mulki" kabi fiskal hamda ijtimoiy institutlar orqali namoyon bo'lgan. E'tiqod, xo'jalik modeli (ko'chmanchilik, dehqonchilik, shaharlik) va ijtimoiy-iqlimiy sharoit farqlari tufayli bir xalqdagi vorislik me'yorlari boshqasidan keskin ajralib turgan; shu bois ayollarning merosdagi o'rni ham universal emas, balki tarixiy-sotsiologik kontekstga bog'liq bo'lgan. Qadimgi tizimlarda ayollarning meros huquqini alohida ajratib o'rganish to'liq tasavvur bermaydi, chunki vorislik qarindoshlik ierarxiyasi, nikoh institutlari va patriarxal boshqaruv bilan chambarchas bog'liq edi. Shu bois, maqolada avvalo samoviy qonunlardagi vorislik asoslari va qadimgi normalar, so'ngra yahudiy va nasroniy muhitda ayollarning huquqiy mavqei hamda islom me'yorlari qiyosiy tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM: Samoviy dinlar va qadimgi xalqlarda ham meros tizimi bo'lgan. Bu ularning turli o'lpon-soliq tizimlari orqali bilinadi. Lekin e'tiqodi, sharoiti, shart-sharoiti turlicha bo'lgani uchun u bir millatdagi holatdan ikkinchisi farq qilgan. Har bir xalqning o'ziga xos meros tizimi bo'lgan¹. Qadimgi tizimlarda ayollarning merosini o'rganish uchun ularning merosini qolgan merosxo'rlardan ajratib o'rganish mumkin emas. Shuning uchun biz samoviy

¹ Qarang: Shayx Muhammad Ali Sobuniy. Islom shariatida meros ilmi. Tarj: Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2022. – B. 21–25. (Samoviy dinlar va qadimgi xalqlarda meros tizimining tafovutlari bayon etilgan.)



qonunlardagi meros asoslarini va ba'zi qadimgi qonunlarni o'rganib chiqamiz. Shuningdek, biz yahudiy va nasroniy qonunlarida kelgan ayol merosi haqida to'xtalamiz.

Xristianlarda meros tizimi yo'q, chunki muqaddas Injil kitobi yahudiylar orasida hukmron bo'lgan axloqiy va ma'naviy muammolarni hal qilish uchun kelgan². Shuning uchun cherkov vakillari yahudiylar, Rim qonunlari va boshqa shariatlardan ba'zi qonunlarni o'zlashtirganlar³.

Yahudiylar o'zlarining tabiatiga ko'ra bir-biriga yaqin yashaydilar. Shu bois, o'lgan odamning pulini uning oilasidan boshqasiga o'tkazib yubormaslik uchun juda ehtiyot bo'lishlari kerakligi o'z-o'zidan ma'lum edi, toki oila o'zlari mashaqqat bilan yig'ib olgan pullarini o'zlarida saqlab qolsin. Bu bilan faxrlanishadi va uni jamiyatdagi nazorat va namuna sifatida tasvirlaydi.

Shuning sabab, agar o'lgan odamning o'g'li, otasi yoki aka-uka, amakisi kabi erkak qarindoshi bo'lsa, ular ayollarga, xoh u qiz, xoh ona, xoh xotin, xoh opa-singil bo'lsin meros qoldirmaydi. Erkak har doim ayoldan ustun turadi. Merosini ham har qanday odamga qoldirishi mumkin, garchi u boshqa yurt vakili bo'lsa ham⁴.

Yahudiylar orasida merosning sabablari: o'g'illik, otalik, aka-uka va amakilar. Agar ota vafot etsa, uning merosi qolgan qarindoshlaridan sheriksiz yolg'iz o'g'il bolalariga o'tadi. To'ng'ich o'g'ilning ulushi boshqa ikkita ukasining ulushiga teng bo'ladi⁵. Boshqa nikohdan tug'ilgan bo'lsa ham, to'ng'ich o'g'ilning ulushi ajralib turadi. Biroq merosni teng taqsimlashga rozi bo'lsalar joiz.

Yahudiy huquqiy an'anasida meros masalalari, asosan, Tavrot va undan keyingi Talmudiy talqinlar asosida shakllangan. Bu tizimda ayollarning merosdagi huquqlari juda cheklangan bo'lib, ular asosan eridan meros olish imkoniyatiga ega emas edi. Hatto turmush o'rtog'i tomonidan merosxo'r etib belgilangan taqdirda ham, ayol erining mol-mulkidan ulush olmagan, biroq erkak xotinidan to'liq meros olishi mumkin edi. Xotin vafot etganda uning mulki faqat eriga o'tardi, ammo erkak vafot etsa, ayol undan meros ola olmas edi⁶.

Bundan tashqari, ona ham farzandlaridan meros olmagan. Agar farzand vafot etsa, meros uning o'g'liga, o'g'li bo'lmasa qiziga qoldirilgan. Bu holatda ham onaning merosdan mutlaqo chetlashtirilishi adolatsizlik sifatida ko'riladi⁷. Yahudiy huquqida erkaklarning mutlaq ustunligi yana bir omil orqali namoyon bo'lgan: to'ng'ich o'g'il aka-ukalariga nisbatan ikki hissa meros olgan, bu esa ko'pincha uning sa'y-harakatlari yoki oilaviy majburiyatlariga bog'liq bo'lmagan⁸.

Shunday qilib, yahudiy meros tizimi ijtimoiy adolat tamoyillaridan ko'ra, patriarxal an'analar va qabila turmush tarziga mos shakllangan edi. Talmudiy manbalarda ayollarning mol-mulk huquqi faqatgina mahr (ketubah) va er tomonidan ta'minlanadigan nafaqaga

² Qarang: John Witte Jr. *The Western Case for Monogamy over Polygamy*. – Cambridge University Press, 2015. – B. 113–117. (Xristianlikda Injilning merosga oid huquqiy tizim emasligi va Rim qonunchiligiga tayanilgan holatlar haqida.)

³ Qays Abd al-Vahhob al-Hayaliy. *Islom shiati va zamonaviy qonunlarda ayolning merosi*. Ummon. Dar al-Homid, 2007. – B. 28.


⁴ Qarang: David C. Flatto. *The Crown and the Courts: Separation of Powers in the Early Jewish Imagination*. – Harvard University Press, 2020. – P. 75–80. (Yahudiylarning oila mulkini saqlashga bo'lgan ehtiyoji va erkaklarning ayollar ustidan merosdagi ustunligi haqida.)

⁵ Qays Abd al-Vahhob al-Hayaliy. *Islom shiati va zamonaviy qonunlarda ayolning merosi*. Ummon. Dar al-Homid, 2007. – B. 33.

⁶ *The Holy Bible: Old Testament*, Numbers 27:1–11 (London: British and Foreign Bible Society, 1952).

⁷ Haim H. Cohn, *Jewish Law in Ancient and Modern Israel* (New York: Ktav Publishing House, 1971), 143.

⁸ Shmuel Safrai, *The Jewish People in the First Century: Historical Geography, Political History, Social, Cultural and Religious Life and Institutions* (Assen: Van Gorcum, 1976), 492.



bog‘langan bo‘lib, ular mustaqil merosxo‘rlik huquqiga ega emas edi⁹. Shu sababdan, yahudiy meros tizimining asosiy kamchiligi shundaki, unda ayollarning jamiyatdagi real mehnati va ijtimoiy o‘rni hisobga olinmagan, balki huquqlar asosan erkaklarga qaratilgan edi¹⁰. Qadim yunonlarda ham meros masalasi zolimona tarzda tashkil qilingan edi. Ularda kishi vafotidan so‘ng uning merosi erkak qarindoshlarga o‘tadi, ayollar va ular tomonidan qarindoshligi bor erkaklarga meros berilmaydi.

Islomdan oldingi davrda ayolning meros olishi. Arablar tirikchilik uchun suv va yaylov izlab, chorva mollari uchun bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib yurishdan iborat bo‘lgan xalqlar hisoblanib, ular ishda unumdor yerlar uchun mojaroga sabab bo‘lgan va bu yerlarni egallash uchun ular o‘rtasida o‘zaro urushlar boshlangan. Demak, ular qabilani himoya qilish va bosqinchilarning bosqinlarini qaytarish uchun qurol ko‘tara oladigan kuchli erkaklarga tayangan. Ularning hayot tarzi meros qoidalarining paydo bo‘lishiga eng katta ta‘sir ko‘rsatdi.

Islomdan avvalgi arablar orasida merosxo‘rlik uch asosiy sababga tayangan: qarindoshlik, ittifoqchilik va farzand asrab olish.

Qarindoshlik merosning eng asosiy omili bo‘lib, unda shartlar qo‘yilgan: merosxo‘r erkak bo‘lishi, balog‘atga yetgan bo‘lishi va jang qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak edi. Ayollar umuman merosdan chetlashtirilgan, hatto ba‘zan o‘zlari mulk sifatida meros qilingan. Voyaga yetmagan o‘g‘il esa merosdan bebahra qolgan.

Ittifoq asosidagi meros esa qabilalararo kelishuvlarga tayanar, qarindoshlar bo‘lmasa, tirik qolgan ittifoqchi merosxo‘r hisoblangan.

Farzand asrab olish orqali ham meros huquqi vujudga kelgan bo‘lsa-da, bu tizim ko‘pincha insoniy qadriyatlarga zid va adolatsiz shartlarga asoslangan edi. Islomda merosga oid oyatlar nozil bo‘lgach, ayrim arablar uchun bu hukmlar og‘ir tuyuldi. Tabariy Abdulloh ibn Mas‘ud (r.a.)dan rivoyat qiladi: “Farozi (meros) oyatlari nozil bo‘lib, Alloh taolo er, xotin, ota-ona va boshqa qarindoshlar merosini belgilab bergach, ayrim kishilar hayron bo‘lib: ‘Ayolga to‘rt dan bir, qizga yarim, yosh bolaga ham meros ajratiladimi? Axir ular urushda qatnashib, o‘lja olishmaydi-ku!’ - deya e‘tiroz bildirdilar. Ular hatto bu oyatlar mansux bo‘lishini kutib, Rasululloh (s.a.v.) hukmni o‘zgartirishlari mumkin, deb o‘ylashgacha borishdi”¹¹.


Islom shariati ayollarga nisbatan jahiliyat davrida mavjud bo‘lgan adolatsizliklarni bekor qilib, ularning huquqiy maqomini yuksaltirdi hamda jamiyatdagi insoniy mavqeiini mustahkamladi. Qur‘oni karimda aniq belgilanganidek, ayollarga erining yoki yaqin qarindoshlarining merosidan qat‘iy ulush ajratildi. Unga akasi yoki ukasiga beriladigan ulushning yarmi belgilandi, agar ota-onadan yolg‘iz farzand bo‘lsa, merosning teng yarmi ayolga nasib etishi shariat tomonidan sobit qilingan. Bu taqsimot ilohiy hikmatga asoslangan bo‘lib, oilaviy va ijtimoiy muvozanatni saqlashga qaratilgan.

Islomda erkakning ayoldan ko‘proq meros olishi, asosan, uning oilaviy mas‘uliyatlari bilan bog‘liqdir. Erkak oilaning moddiy va ma‘naviy ta‘minotchisi sifatida qaralgan. Shu sababdan u jismonan quvvatli va mas‘uliyat yukini ko‘tarishga tayyor qilib yaratilgan. Ayol esa zurriyotni davom ettiruvchi, oilaga osoyishtalik va mehr bag‘ishlovchi, farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi inson sifatida ko‘riladi. Shunday taqsimot orqali jamiyatdagi vazifalar muvozanatli tarzda taqsimlanadi va har bir ish o‘z o‘rnida mukammal bajariladi.

⁹ Elon, Menachem. *Jewish Law: History, Sources, Principles*, Vol. 2 (Philadelphia: Jewish Publication Society, 1994), 765.

¹⁰ Judith Romney Wegner, *Chattel or Person? The Status of Women in the Mishnah* (New York: Oxford University Press, 1988), 112.

¹¹ Ushbu rivoyat Niso surasining 11-oyati tafsirida keltirilgan bo‘lib, unda meros taqsimoti haqida nozil bo‘lgan oyatlarga ayrim kishilarning munosabati tasvirlangan At-Tabariy, Abu Ja‘far Muhammad ibn Jarir. *Jāmi‘ al-Bayān ‘an Ta’wīl Āy al-Qur’ān*. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1997. – Jild 5, sahifa 14.



G'arb tadqiqotchilari ham ushbu masalaga qiziqish bildirgan. Masalan, N. J. Coulsonning ta'kidlashicha, Islom meros tizimi "o'z davri uchun inqilobiy yondashuv bo'lib, ayollarga mulk huquqi va iqtisodiy erkinlik bergan ilk huquqiy tizimlardan biridir"¹². M. H. Kamali esa ayollarning merosdagi ulushini "ijtimoiy adolatni ta'minlovchi va iqtisodiy mas'uliyatlar taqsimotiga asoslangan mutanosib yechim" sifatida izohlaydi¹³. J. Esposito ham Islomning dastlabki asrlarida ayollarning meros olish huquqi G'arbda hali bir necha asr davomida mavjud bo'lmaganini ta'kidlaydi¹⁴.

Shunday qilib, ayollarning merosdagi ulushi erkaklarga nisbatan kamroq bo'lsa-da, bu tengsizlik emas, balki oilaviy majburiyatlar va iqtisodiy javobgarliklar mutanosibligidan kelib chiqqan shariat hukmidir.

Shunday qilib hayot ham muntazam davom etadi¹⁵.

Islom huquqida Meros ahkomlari va miqdorlari borasida asosiy manba Qur'oni Karimdir. Faqatgina oz qismi sunnat yoki ijmo bilan sobit bo'lgan. Islom huquqida Qur'oni Karim meros hukmlarini bayon qilganidek, boshqa biror hukmni bu qadar batafsil bayon qilmagan¹⁶. Islom dini meros masalalariga shu qadar oliymaqom daqajada inoyat ko'rsatdiki, hatto Qur'oni karim uni o'zining mukammal tarzda bayon qildi. Zero, mulkka egakik qilish sabablarining eng muhimi, mol-mulk esa yakka shaxslar va jamiyatning hayoti uchun asosiy omili va turmush tarzi mana shu molga bog'liq hisoblanadi. Merosning ham bir necha turlari mavjud bo'lib, bular quyidagilardir:

Meros huquqi fiqhiy manbalarda bir necha ko'rinishda tasniflanadi. Jumladan, farz (qat'iy ulush) asosida olinadigan meros, 'asabah (qarindoshlik ustunligiga ko'ra olinadigan meros), radd (merosni qaytarish) asosida olinadigan meros hamda zavul-arham (yaqin, ammo asosiy vorislar qatoriga kirmagan qarindoshlar) orqali olinadigan meros turlari mavjud. Ularning tafsilotlari fiqhiy asarlarda keng yoritilgan bo'lib, keyingi maqolalarda batafsil sharhlash mumkin.

Meros olishning asosiy sabablari uch toifaga bo'linadi:

Nasab - ya'ni qarindoshlikka ko'ra meros olish. Bunga ota-ona, farzandlar, aka-ukalar, amakilar va boshqa qarindoshlar kiradi.

Nikoh - er-xotin o'rtasidagi meros huquqi. Biroq, agar nikoh fasid (shar'an buzilgan) bo'lsa, meros huquqi vujudga kelmaydi.

Valo - qulni ozod qiluvchining unga merosxo'r bo'lish huquqi.

Merosning shartlari ham uchta: birinchidan, meros egasi – mol-mulk sohibi haqiqatan vafot etgan bo'lishi lozim; ikkinchidan, meros qoldiruvchi vafot etgan paytda merosxo'r tirik bo'lishi zarur; uchinchidan, meros olishga oid shar'iy qoidalar aniq va ravshan bo'lishi talab qilinadi.

Islom meros huquqining markaziy masalalaridan biri ayollarning vorislikdagi o'rnidir. Islom shariati bo'yicha ayollarning meros olish huquqi qat'iy belgilangan bo'lib, bu hukmning asosiy manbasi Qur'oni karim oyatlaridir. Alloh taolo meros taqsimotida "har bir farz egasiga uning ulushi"ni aniq ko'rsatib bergan va ularda ayol merosxo'rlarning ham ismlari bevosita zikr etilgan¹⁷. Bu esa ayollarning merosdan bahramand bo'lishi inkor qilib bo'lmaydigan shar'iy dalil ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning bir

¹² N. J. Coulson, A History of Islamic Law (Edinburgh: Edinburgh University Press, 1964), 87.


¹³ Mohammad Hashim Kamali, Shari'ah Law: An Introduction (Oxford: Oneworld Publications, 2008), 211.

¹⁴ John L. Esposito, Women in Muslim Family Law (Syracuse: Syracuse University Press, 2001), 54.

¹⁵ Avlaqulov, Xusniddin Yusupovich. "Meros ilmi, uning asosi va shartlarini turtta mazhab o'rtasidagi farqlari haqida." "Canada" International Conference on Developments in Education, Sciences and Humanities, vol. 9, no. 1, 2023, 29 May. <https://intereuroconf.com/index.php/DESH/article/view/1309>.

¹⁶ Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi; Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Toshkent Islom Universiteti, 2018. – 624 b.

¹⁷ Qur'oni karim, an-Niso surasi, 4:7



qancha sahih hadislarida ham ayollarning meros olish huquqi tasdiqlangan¹⁸. Demak, Islom meros tizimida ayollar erkaklar bilan bir qatorda mustaqil voris sifatida huquqiy maqomga ega bo'lgan va bu jihat Islomning ilg'or huquqiy qadriyatlaridan biri sifatida alohida o'rin tutadi.

Ayollarning merosdagi huquqlari nafaqat umumiy tamoyillar darajasida, balki aniq o'rinlar bilan ham belgilangan. Islom huquqida ular umumiy hisobda yettita, tafsilotda esa o'nta shaklda meros oladilar. Jumladan:

1. Qiz - agar u yolg'iz bo'lsa, merosning yarmiga ega bo'ladi; agar ikki yoki undan ortiq bo'lsa, ularga umumiy merosning uchdan ikki qismi beriladi¹⁹.
2. Ona - farzand qoldirgan taqdirda oltidan bir qism, farzandsiz vafot etsa uchdan bir qism oladi²⁰.
3. O'g'ilning qizi (nabira) - agar marhumning o'g'li bo'lmasa, qiz nabira sifatida ulush oladi.
4. Buvis - ota yoki ona tomonidan bo'lsin, tirik bo'lsa oltidan bir qism meros oladilar.
5. Tug'ishgan opa-singillar - o'g'il bo'lmagan taqdirda ularga belgilangan ulush ajratiladi.
6. Ota bir opa-singillar - tug'ishganlar kabi shartli ravishda voris bo'lishlari mumkin.
7. Ona bir opa-singillar - ular ham nasabga qarab ulushga ega bo'ladilar.
8. Xotin - eridan meros sifatida farzandlari bor bo'lsa sakkizdan bir, farzandsiz bo'lsa to'rtidan bir qism oladi⁵.
9. Qulni ozod qilgan ayol - agar ozod qilingan qul vafot etsa va boshqa vorislari bo'lmasa, uning mol-mulki ozod qiluvchiga meros bo'ladi.

Bu qoidalar Qur'oni karim va hadislar asosida qat'iy belgilangan bo'lib, ayollarning jamiyatdagi huquqiy maqomini oshirish, ularni ijtimoiy adolat asosida himoya qilish hamda oilaviy meros munosabatlarida teng huquqli ishtirokchi sifatida mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA: Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ayol kishi islom shariati kelib huquqlari tiklandi. Shaxs, ona, xotin, qiz sifatida ham meros olishga loyiqkigi qat'iy qonuniyat asoslariga Alloh taolo tomonidan farz qilindi. Bunday imkoniyat ayolning isom jamiyatida tutgan o'rnini belgilab beradi. Jismoniy jihatdan ojiz sanalgan ayolni boshqa barcha huquqlardan mahrum etish, insoniylik jihatdan ham, diniy nuqtai nazardan ham adolatdan emas.

Ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro shartnomalar (masalan, "Ayollarga nisbatan barcha shakldagi diskriminatsiyani yo'qotish to'g'risidagi konvensiyani" (CEDAW) 1979): CEDAW²¹ konvensiyasi ayollarning meros huquqlarini himoya qilishni ko'zda tutadi, lekin bu hujjat ham to'g'ridan-to'g'ri meros haqida gapirmaydi. Biroq, ayollarni merosda diskriminatsiya qilmaslik va ularni teng huquqli deb tan olish kerakligi ta'kidlanadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati:


1. Qur'oni karim. – Toshkent: Toshkent Islom universiteti nashriyoti, 2017, 604 b.
2. Hadislar to'plami: Imom al-Buxoriy, Imom Muslim, Abu Dovud. – Toshkent: Movarounnahr, 2006, 672 b.
3. At-Tabariy, Muhammad ibn Jarir. Jami' al-Bayan fi Tafsir al-Qur'an. – Bayrut: Dar al-Fikr, 1984, 13200 b.

¹⁸ Qur'oni karim, an-Niso surasi, 4:11.

¹⁹ Qur'oni karim, an-Niso surasi, 4:11.

²⁰ Qur'oni karim, an-Niso surasi, 4:12.

²¹ Batafsil ma'lumot uchun qarang: United Nations, Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination Against Women (CEDAW), 1979.; Charlesworth, Hilary, "CEDAW and the Politics of International Women's Rights", Human Rights Quarterly, Vol. 16, No. 4 (1994), pp. 691-709.; Bunch, Charlotte, Women's Rights as Human Rights: Toward a Re-Vision of Human Rights, Human Rights Quarterly, 1990.



4. Al-Bayzoviy, Abdullah ibn Umar. Anvar at-Tanzil va Asror at-Ta'vil. – Istanbul: Matbaa al-Amira, 1887, 720 b.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Meros ilmi. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2010, 368 b.
6. Abdug'afurov, A. Islom huquqida meros masalalari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2001, 214 b.
7. Coulson, N. J. A History of Islamic Law. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 1964, 274 b.
8. Kamali, M. H. Shari'ah Law: An Introduction. – Oxford: Oneworld Publications, 2008, 340 b.
9. Tucker, Judith E. Women, Family, and Gender in Islamic Law. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008, 260 b.
10. Goitein, S. D. Jewish Family Life in the Middle Ages. – Leiden: Brill, 1978, 320 b.
11. Westbrook, R. Property and the Family in Biblical Law. – Sheffield: Sheffield Academic Press, 1991, 245 b.
12. Evans Grubbs, J. Women and the Law in the Roman Empire: A Sourcebook on Marriage, Divorce and Widowhood. – London: Routledge, 2002, 420 b.
13. Anderson, J. N. D. Islamic Law in the Modern World. – New York: New York University Press, 1959, 280 b.
14. Ислам энциклопедияси. – Тошкент: Шарқ, 2004, 600 b.
15. Абдуллаев, А. Шарқ ҳуқуқи тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010, 312 b.
16. Содиқов, Қ. Ислам ҳуқуқи назарияси. – Тошкент: Мовароуннахр, 2015, 288 b.
17. Moghadam, Valentine M. Modernizing Women: Gender and Social Change in the Middle East. – Boulder: Lynne Rienner, 2013, 360 b.
18. CEDAW. Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination Against Women. – United Nations, 1979.